

ERKAKLAR TASVIRI BILAN BOG‘LIQ FITONIM KOMPONENTLI O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xudayarova Solihaposhsho Низомидинновна,
O‘zDJTU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası
stajor o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilida erkaklarga xos bo‘lgan o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Erkaklarning tashqi ko‘rinishi, holatini ifodalashda fitonim komponentli o‘xshatishlarning ahamiyati ochib beriladi. Erkaklar oila boshlig‘i, yurt tayanchi bo‘lganlari uchun ular ko‘proq daraxt va uning turlari, meva va sabzavotlar, hamda poliz ekinlariga o‘xshatiladi.*

***Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, lingvomadaniy tadqiq, fitonim, fitonim komponentli o‘xshatishlar.*

Dunyoda til haqidagi ta‘limotlar kundan kun sayqallanib bormoqda. Bugungi shiddatli zamonda tilning imkoniyatlari, turli qirralari kashf qilinmoqda. Til hamisha o‘z egasining hayoti, yashash tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan. Tilni xalq bilan uning madaniyati, milliy qadriyatlari bilan uzviylikda tadqiq etish bugungi kun tilshunoslarining e‘tiboridagi masalaga aylandi. Binobarin, xalqning tiynati, ruhiyati, tabiati va milliy mentalitetini tildan ayri holda ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Jumladan, antroposentrik tilshunoslik ya‘ni markazida inson turuvchi tilshunoslikning lingvokulturologiya tarmog‘i aynan shu masalalarga diqqat qaratmoqda.

F.Usmonov o‘zining “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqiga bag‘ishlangan izlanishlarida, inson obrazi va u bilan bog‘liq o‘xshatishlarni tadqiq qilar ekan, ularda o‘zbek milliy madaniyati va qadriyatlarini aks etishiga alohida e‘tibor qaratadi. Inson guruhiga mansub o‘xshatishlarni insonning tashqi olami va ichki olami bilan bog‘liq o‘xshatishlar deya turlarga ajratar ekan, tashqi olam guruhiga insonning tashqi ko‘rinishi, harakat-harakatsizligi, jismoniy xususiyatlari, nutqiy faoliyati, fiziologik holati hamda insonlararo munosabatlari bilan bog‘liq o‘xshatishlarni, ichki olam guruhiga esa insonning ichki kechinmalari, kayfiyati, xarakter, shaxsiy sifatlar va axloqiy xususiyatlari hamda ijtimoiy holati aks etgan turg‘un o‘xshatishlarni kiritadi. Va bu guruhga kiruvchi o‘xshatishlarni tahlil qilar ekan, ular orasida eng ko‘p qo‘llaniluvchi o‘xshatishlar sifatida insonning umumiy ko‘rinishi, qomati, soch, yuz va ko‘zi bilan bog‘liq o‘xshatishlarni ajratib ko‘rsatadi. Bizning izlanishlarimiz esa shuni ko‘rsatadiki, tilshunos ta‘kidlagan turlar ichida inson obrazini fitonimlar vositasida tasvirlash salmoqli o‘rin egallaydi. Bu

o‘xshatishlar o‘zining ma’no qirralari aro ijobiylik va salbiylik, chiroylilik va xunuklik, yaxshi va yomon kabi oppozitsiyaga ega.

Inson obrazi bilan bog‘liq o‘xshatishlarni tahlil qilar ekanmiz, ular orasidan erkaklar obrazi va ular bilan bog‘liq o‘xshatishlarga alohida e’tibor qaratsak. Erkaklarning tasvirida daraxt fitonimi yetakchi mavqega ega. Inson yoshi o‘tgani, qarib kuchdan qolgani, yuzi va tashqi qiyofasidagi o‘zgarishlar ham fitonim komponentli o‘xshatishlar vositasida ifodalanadi. Erkaklar tasviri bilan bog‘liq o‘xshatishlarda asosan ularning bo‘y-basti, qaddi-qomatining kelishganligi o‘xshatish uchun asos vazifasini bajargan. Erkaklar yuz ifodasi, qarilik alomatlarini bilan bog‘liq o‘xshatishlar orasida saksovuлга qiyos etilgan misollar talaygina. Xususan, S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasi qahramonlarining tashqi ko‘rinishi, yuz ifodalari bir necha o‘rinda saksovuлга qiyoslangan.

Butun Farg‘ona vodiysiga Yog‘och polvon deb nom chiqargan, saksovuлdek tanlari bujmayib ketgan novcha polvon bir qo‘li bilan yerga tirilib, yo pirim, deb o‘rnidan turdi.

Ikromjon bo‘lsa ozib cho‘p bo‘lib ketgan edi. Cho‘l shamali uning badanini habashdek qoraytirgan. Yuzlari xuddi saksovuлday burishib ketganga o‘xshardi.

Shuni alohida ta’kidlash mumkinki, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida chinor chidamlilik, baquvvatlik, tut bag‘rikenglik, saksovuл, yulg‘in yolg‘izlik timsolida uchraydi¹.

Erkaklar ta’rifida fitonimlardan poliz ekinlariga qiyoslash salmoqlidir. Erkak kishining tashqi ko‘rinishi ya’ni tana a’zolari oshqovoq, tarvuz kabi poliz ekinlariga ham qiyos etiladi. Oshqovoqning inson boshiga yoki bosh kiyimiga qiyos etilishi kuzatiladi. Oshqovoq yoki qovoq kalla iborasi ham mavjud bo‘lib bunda insonning bilimsizligi, uquvsizligi nazarda tutilgan.

Boshqasiga tegib ketding,

Ehh deb qolgan palla edim.

Seni sevi aytolmagan

Oddiy qovoq kalla edim.(F.Baxtiyorov)

Oshqovoq bilan bog‘liq o‘xshatishlarda kishining salbiy munosabati o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘atida quyidagicha ta’riflanadi:

Oshqovoqday Katta, beo‘xshov. Ko‘proq odamning kallasi, salla va shu kabilar haqida; kuchli salbiy munosabat ifodalanadi².

¹ [Jo‘rayev M, O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B.324].

Jaloliddin yonida turgan fidoyi yigitlar shu lahza qon oqib turgan oshqovoqdek katta kallani choyshabga o‘rab, vaqtni qo‘ldan bermaslik uchun tezda tashqariga chiqib, otlariga minishdi (Mirmuhsin. Temur Malik).

Sartaroshlik yomon kasb emas, elektr mashinkalar har qanday oshqovoqday boshni ham bir zumda shilib tashlaydi (E. Raimov. Ajab kishloq).

Bismillo, deb xonaqohdan Zohir shayx chiqdi. Boshida oshqovoqdek dastor, bir qo‘lida tasbeh, uzun chopon kiyganigami basavlat ko‘rinardi (S. Siyoev. Avaz).

O‘zbek xalqi hazil-mutoyibaga, kulgu-xandalarga ustaligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Xalq latifalari, askiya-yu hangomalarida ham kishilarni oshqovoqqa qiyoslash uchrab turadi.

–Men sizni o‘xshatdim.

–Nimaga o‘xshatdingiz?

–Oshqovoqqa?

–Oshqovoq bo‘lsam nima qilardingiz?

Qovoqli osh qilardim..(O‘zbek xandalaridan)

O‘zbek xalqining milliy madaniyati, tarixiy haqiqatlarni aks ettiruvchi “O‘tgan kunlar” asarida barchamizga ma’lum, o‘tkir yumorni o‘zida jamlagan qovoq devona obrazi mavjud. Bu obraz telba, devona sifatida tasvirlangani bois qovoq devona nomini olgan, biroq uning nutqida o‘sha davrdagi chirkin voqealar achchiq kulgiga olinadi. U beliga osib olgan qovoqlariga davlat tepasidagi “Qovoq kalla” amaldorlar nomini berganing boisi ham, rahbarlarning bilimsizligi va muteligini tasvirlashdir. Shu sabab ham xalqimizda o‘z fikriga, mustaqil qaroq qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan kimsalar “qovoq kalla” deya ta’riflanadi.

Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog‘ini ko‘rsatib: Manov Musulmon cho‘loq, dedi, uning yonidag‘i kichkina tomosha qovoqni turtib: bunov, Xudoybachcha (Xudoyorbachcha), dedi, suv qovog‘ini erkalab “Nor kalla” (Normuhammad qushbegi), dedi. Qolg‘an ikkita silliq qovoqchalarni “nosqovoq, yupqa tomoq”, deb qo‘ydi. Ermakchilar kulishdilar (A.Qodiriy. “O‘tgan kunlar”)

Bu qattiq yumor ostida achchiq haqiqatlar yashirin. Xalq ishongan, xalq suyanishi mumkin bo‘lgan kishilar xayoli mol-mulk dardida-yu, miyasi qovoq misol bo‘sh bo‘lsa, bundan alamlisi bo‘lmasa kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, inson obrazining aynan erkaklar timsolining fitonimlar orqali ifodalanishi qadim o‘tmishga borib taqaladi. Erkaklar oila boshlig‘i, yurt tayanchi bo‘lganlari uchun ham daraxtga qiyos etilgan. Baquvvat,

² [Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.167].

baland bo‘yli erkaklar chinorga, bo‘yi uzun, ingichka gavdali kishilar esa novda yoki niholga qiyos etilgan. Fitonim komponentli o‘xshatishlar orasida poliz ekinlari, sabzavotlarga ham qiyos etish holatlari mavjud bo‘lib, bunda kishilarning semiz yumaloq gavdalari, dumaloq qorinlari tarvuzga, yurishlari esa tarvuzning dumalashiga qiyos etilgan. Uquvsiz, tajribasiz kishilar boshi oshqovoqqa yoki qovoqqa qiyos etilgan. O‘rta asrlarda urf bo‘lgan kishilar bosh kiyimi sallalar ham oshqovoqqa mengzalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 3-сон. Б.19-24.
2. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори дисс.автореф. Тошкент. 2020. 57 б
3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. Тошкент. 2013.
4. Jo‘rayev M, O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.213 b.
5. Аҳмад Саид. Уфқ. Тошкент, 2013. – 652 б.